



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH
VAZIRLIGI TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI
REKTORINING
BUYRUG‘I**

2023 yil “26” may 00909 - son

**“Endokrinologiyaning dolzarb muammolari” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy
anjumanni o‘tkazish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-dekabrda PP-5590-sonli “O‘zbekiston Respublikasi aholisiga ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko‘rsatishni tubdan takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. 2023-yil 14-iyun kuni “Endokrinologiyaning dolzarb muammolari” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman (keyingi o‘rinlarda – Anjuman) o‘tkazilsin.

2. Anjumanga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish uchun mas‘ul etib Toshkent tibbiyot akademiyasi (keyingi o‘rinlarda – TTA) Yoshlar masalalari va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor T.A.Bobomuratov, O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor F.L.Azizova, 2-son ichki kasalliklar va endokrinologiya kafedrasini mudiri A.A.Xamrayev, 2-son ichki kasalliklar va endokrinologiya kafedrasini professori B.X.Shagzatova, 2-son ichki kasalliklar va endokrinologiya kafedrasini professori D.Q.Najmutdinova, 2-son ichki kasalliklar va endokrinologiya kafedrasini dotsenti t.f.n., D.M.Artikova belgilansin.

3. Quyidagilar:

Anjuman dasturi 1-ilovaga muvofiq;

Anjumanning tashkiliy komissiya tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor F.L.Azizova, 2-son ichki kasalliklar va endokrinologiya kafedrasini mudiri professor A.A.Xamrayev va tegishli kafedra mudirlari:

Anjumanda tegishli kafedralarning professor-o‘qituvchilari, doktorantlar, ilmiy izlanuvchilar, magistr va klinik ordinatorlarning faol ishtirokini ta‘minlasin;

Anjumanni yuqori saviyada va keng qamrovda tashkillashtirish maqsadida ijtimoiy tarmoqlar hamda TTA veb-saytida keng targ‘ib qilsin;

joriy yilning 20-iyuniga qadar Anjuman yakunlari bo‘yicha hisobotni Sog‘liqni saqlash vazirligining Ilm-fan va ta‘lim bosh boshqarmasiga topshirsin.

5. Reja-moliya bo'limi boshlig'i O.U.G'oirov va Bosh buxgalter B.I.Alijonova Anjumanni o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan barcha sarf-xarajatlar homiylar va TTAning budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan amalga oshirilishini ta'minlasin.

6. Mazkur buyruq ijrosining nazorati Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor F.L.Azizova zimmasiga yuklatilsin.

Rektor



A.Shadmanov

Buyruq kelishuvi

**Tayyorladi:
Z.Muminova**

Bo'lim boshlig'i

Kelishildi:

F.Azizova

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor

Sh.Boymuradov

O'quv ishlari bo'yicha prorektor

O.G'aipov

Bo'lim boshlig'i

B.Alijonova

Bosh buxgalter

T.Bobomuratov

**Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar
bo'yicha prorektor**

J.Israilov

Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor

S.Yusupova

Bo'lim boshlig'i